

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY DAVLAT: HUQUQIY- INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYA

Xolmatov Farruxbek Ravshanjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat Boshqaruv huquqi” magistri

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy va institutsional jihatdan tubdan yangilanishi hamda bu jarayonning jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishdagi o‘rni tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida Yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar yotadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari faoliyati Finlyandiyaning 2021-yilda joriy etilgan “farovonlik tumanlari” islohoti bilan qiyosiy o‘rganilib, milliy tizimning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy davlat, inson qadri, ijtimoiy adolat, “Mahalla yettiligi”, manzilli ijtimoiy himoya, Finlyandiya modeli, raqamlashtirish, kambag‘allikni qisqartirish siyosati.

SOCIAL STATE IN UZBEKISTAN: LEGAL AND INSTITUTIONAL TRANSFORMATION

Kholmatov Farruxbek Ravshanjon o‘g‘li

Master of “Public Administration Law”

Tashkent State University of Law

Abstrakt. The article provides a systematic analysis of the fundamental legal and institutional renewal of the social protection system in Uzbekistan and its role in establishing social justice within society. The research focuses on the norms of the newly revised Constitution and the priority goals set in the

“Uzbekistan-2030” strategy. Furthermore, the activities of the “Inson” (Human) social services centers in Uzbekistan are compared with Finland’s 2021 “wellbeing counties” reform, revealing the unique aspects of the national system.

Keywords: Social state, human dignity, social justice, “Mahalla Seven”, targeted social protection, Finnish model, digitalization, poverty reduction policy.

СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВО-ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ

Холматов Фаррухбек Равшанжон угли

Магистр направления «Право государственного управления»

Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация. В статье проводится системный анализ коренного обновления системы социальной защиты в Узбекистане с правовой и институциональной точек зрения, а также роли этого процесса в установлении социальной справедливости в обществе. В центре исследования лежат нормы Конституции в новой редакции и приоритетные цели, определенные в стратегии «Узбекистан-2030». Также деятельность центров оказания социальных услуг «Инсон» в Узбекистане сравнивается с реформой «округов благополучия»

Ключевые слова: Социальное государство, достоинство человека, социальная справедливость, «Махаллинская семерка», адресная социальная защита, финская модель, цифровизация, политика сокращения бедности.

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish sharoitida ijtimoiy adolat tushunchasi yangi mazmun kasb etib bormoqda. Bu mustaqillikning dastlabki yillaridagi “davlat - jamiyat-inson” modelidan bugungi kunda hayotiy zaruratga aylangan “inson-jamiyat-davlat” paradigmasiga o‘tishning obyektiv sabablaridan biri sifatida izohlanmoqda¹. Mazkur paradigma barcha davlat organlari faoliyatini inson qadrini ulug‘lashga yo‘naltiruvchi asosiy g‘oya vazifasini o‘tashi maqsad qilindi. Prezident huzuridagi ijtimoiy himoya Milliy agentligining tashkil etilishi va “mahallabay” ishlashning yangi shakli bo‘lgan “Mahalla yettiligi” tizimi ijtimoiy yordamni manzilli va shaffof yetkazishda asosiy institutsional poydevor vazifasini o‘tamoqda deb aytishimiz mumkin. Shu boisdan ham ijtimoiy soha xodimlari malakasini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va xalqaro hamkorlikni raqamli platformalar orqali kengaytirish ijtimoiy soha samaradorligini oshirishda e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan jihatlardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning ilmiy jihatdan shakllantirishda shunchaki ma’lumotlarni tavsiflash emas, balki Yangi O‘zbekistondagi ijtimoiy-huquqiy transformatsiyalarning ichki mohiyatini ochib berishga qaratilgan kompleks va fanlararo yondashuv ustuvor qilib olindi. Tadqiqot jarayonida davlat boshqaruvi paradigmasining o‘zgarishini va ijtimoiy adolat tamoyillarining institutsionalizatsiyalashuvini tahlil qilish uchun quyidagi metodologik vositalar uyg‘unlikda qo‘llanildi: dialektik va tarixiy-mantiqiy tahlil metodi, qiyosiy-huquqiy (komparativistik) metod, aksiologik yondashuv meetodi, empirik va statistik ma’lumotlarni qayta ishlash metodidan foydalanildi. Xususan, Finlyandiyaning 2021-yildagi islohoti natijasida tashkil etilgan “farovonlik tumanlari” modeli² bilan O‘zbekistondagi “Inson” ijtimoiy xizmat markazlari faoliyati o‘rtasidagi tipologik o‘xshashliklar chuqur qiyoslandi. Bu solishtirish ijtimoiy xizmatlarni yagona ma’muriyat ostida birlashtirishning samaradorligini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: 2021.

² Finnish Government. Health and social services reform: Well-being services counties. Ministry of Social Affairs and Health. 2021.

ilmiy asoslash imkonini berdi. 2017-2024-yillardagi rasmiy statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, ijtimoiy yordam ko‘rsatilgan 3,5 milliondan ortiq fuqaroning ijtimoiy holati dinamikasi baholandi³. Mazkur metodologik sintez tadqiqot natijalarining ishonchliligini va xulosalarning amaliy ahamiyatini kafolatlaydi. Shuningdek Aksiologik yondashuv asosida ijtimoiy adolat hodisasi faqatgina huquqiy normagina emas, balki xalqimizning ko‘p asrlik tarixi va milliy qadriyatlaridan unib chiqqan ma’naviy kategoriya sifatida talqin etildi. Shu bilan birga, tizimli-funksional yondashuv yordamida Milliy ijtimoiy himoya agentligining tashkil etilishi, mahallabay ishlash mexanizmi (“Mahalla yetiligi”) va “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” platformasining korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirishdagi roli o‘rganildi⁴.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va 2017-2024-yillar oralig‘idagi statistik ko‘rsatkichlarni o‘rganish natijasida Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy-institutsional poydevori borasida bir qator fundamental natijalar qo‘lga kiritildi. Ushbu natijalar mamlakatning boshqaruv paradigmasi tubdan o‘zgarganini va ijtimoiy himoya tizimi butunlay yangi sifat bosqichiga ko‘tarilganini tasdiqlaydi.

Konstitutsiyaviy maqom va huquqiy kafolatlarning kengayishi. Tadqiqotning eng birlamchi va muhim natijasi sifatida O‘zbekistonning 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasiga muvofiq ilk bor rasman “ijtimoiy davlat” deb e‘lon qilinganini ko‘rsatish mumkin⁵. Bu shunchaki normativ-huquqiy hujjat bolmasdan, balki davlatning fuqarolar oldidagi majburiyatlarini huquqiy jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi bosh qomusda ijtimoiy sohaga oid normalar soni uch baravarga ko‘paygan. Natijada, ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi “hukumat yordami” maqomidan fuqarolarning qat’iy “konstitutsiyaviy huquqi” darajasiga ko‘tarildi. Davlat zimmasiga

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati: Statistika to‘plam-2024.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU. 2023.

kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash va ehtiyojmand qatlamni uy-joy bilan ta‘minlash bo‘yicha aniq konstitutsiyaviy majburiyatlar yuklatildi. Bu esa har qanday siyosiy o‘zgarishlardan qat‘i nazar, ijtimoiy himoya ustuvorligini kafolatlaydigan huquqiy immunitet yaratilganidan dalolat beradi.

Institutsional markazlashuv va “Inson” xizmatlarining joriy etilishi. O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimining tarqoqligiga barham berish maqsadida amalga oshirilgan eng yirik natija bu Milliy ijtimoiy himoya agentligining tashkil etilishi bo‘ldi⁶ (2023-PF-82-son). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha ijtimoiy xizmatlarning yagona boshqaruvga birlashtirilishi resurslarni adolatli taqsimlashda xalqaro standartlarga, xususan, Finlyandiya modelidagi “yagona ma‘muriyat” tamoyiliga mos keladi. Hududlarda tashkil etilgan 200 dan ortiq “Inson” ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish markazlari orqali professionallashtirilgan ijtimoiy ish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu tizim yordamga muhtoj shaxslarni shaxsiy kabinetda kutib o‘tirmasdan, ularni bevosita xonadonlarda aniqlash (proaktiv usul) imkonini yaratdi. Bu tizimning samaradorligini oshirishda muhim qadam bo‘ldi deyishimiz mumkin.

“Mahallabay” ishlash tizimi va ijtimoiy ko‘mak ko‘lami. Ijtimoiy davlat modelining quyi bo‘g‘indagi amaliy ifodasi sifatida “Mahalla yettiligi” (hokim yordamchisi, ijtimoiy xodim, yoshlar yetakchisi va b.) tizimining samaradorligi aniq raqamlarda namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida ma‘lum bo‘ldiki, ushbu tizimli yondashuv natijasida 2017-2024-yillar davomida 3,5 milliondan ortiq fuqaroga manzilli amaliy yordam ko‘rsatilgan⁷. Amalga oshirilgan islohotlarning natijasida yurtimizda inson shaxsiyati yuksak qadriyat sifatida baholana boshladi deyishimiz mumkin, shuningdek, davlat ko‘rsatayotgan xizmatlari bevosita xalqqa yaqinlashib, hokim yordamchilari orqali kambag‘al oilalarga 100 million so‘mgacha garovsiz kreditlar va subsidiyalar ajratish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan. Bu ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolar

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni. Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati: Statistik to‘plam. Toshkent. 2024.

uchun bu yordam o'zlarini iqtisodiy jihatdan yaxshilab olishlari uchun yaxshigini imkoniyatdir

Kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy mobillik. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturining dastlabki natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston statistik raqamlar ketidan quvmasdan, har bir oilaning individual ehtiyojlarini o'rganishga o'tgan. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, 2024-yil yakuniga qadar 500 ming, 2025-yilda esa 1 million nafar aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha aniq strategik yo'l xaritasi ishlab chiqilgan va ijroga qaratilgan⁸. Bunda asosan ijtimoiy nafaqa berish bilan cheklanib qolmasdan, inson kapitalini rivojlantirish va kasb-hunarga o'qitish orqali iqtisodiy mustaqillikka erishish natijalari aniqlangan. Ayniqsa, xotin-qizlarning magistratura bosqichida o'qish xarajatlarini to'liq davlat tomonidan qoplab berilishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda katta natija berayotgani tahsinga loyiq.

Institutsional birlashuv va Finlyandiya tajribasi bilan qiyos. Natijalar qismida ko'rib o'tilganidek, O'zbekistonda Milliy ijtimoiy himoya agentligining tashkil etilishi tarqoq xizmatlarni yagona boshqaruvga birlashtirdi. Bu jarayonni Finlyandiyaning 2021-yildagi "farovonlik tumanlari" (*well-being services counties*) islohoti bilan qiyoslash o'rinli⁹. Finlyandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va tibbiy xizmatlarning turli munitsipalitetlar qo'lida tarqoq bo'lishi resurslarning notekis taqsimlanishiga va xizmat sifatining pasayishiga olib keladi.

O'zbekistondagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari ham aynan shu "yagona boshqaruv" tamoyiliga tayanadi. Ammo, fin modelidan farqli o'laroq, bizda ijtimoiy xodimlar hali professional darajada yetarli tayyorgarlikka ega emasligi, ya'ni tizimga mos keladigan salohiyatli kadrlarning yetishmasligi mazkur tizimni yanada optimallashtirish yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ijtimoiy soha xodimlarini xorijda malaka oshirishga yuborish va bunda xodimning mas'uliyatini oshirish uchun

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

⁹ Finnish Government. Health and social services reform: Well-being services counties. Ministry of Social Affairs and Health. 2021.

xarajatlarning bir qismini ularning hisobidan qoplash tizimini joriy etish taklifimiz tizim samaradorligini oshirishning muhim vositasi bo‘lishi mumkin deb ayta olamiz.

Kambag‘allikni qisqartirish: “Kambag‘allikdan farovonlik sari” strategiyasi. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi statistik raqamlardan har bir xonadonning individual muammosini o‘rganishga o‘tdi. 2025-yilga qadar 1 million kishini kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha belgilangan maqsad ulkan siyosiy irodani talab qiladi, chunki kambag‘allikni qisqartirish shunchaki nafaqa berish emas, balki shaxsni tadbirkorlikka, kasb-hunarga o‘rgatish va unga bozor iqtisodiyotida o‘z o‘rnini topish uchun start imkoniyatlarini yaratish demakdir¹⁰. Bu yerda “mahallabay” ishlash tizimi doirasidagi “hokim yordamchilari” va “ijtimoiy xodimlar”ning roli beqiyos.

Sog‘liqni saqlash: Tibbiy sug‘urta va hududiy tengsizlik. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish jarayoni davlatning ijtimoiy majburiyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Natijalarimiz shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda tibbiy xizmat ko‘rsatishda hududlararo tengsizlik hali ham saqlanib qolmoqda. Ijtimoiy davlat konsepsiyasida “geografik paradigma” muhim o‘rin tutadi, ya’ni makon adolatning asosiy omili bo‘lishi kerak. Bu muammoni hal etish uchun birlamchi tibbiy bo‘g‘inni raqamlashtirish va mahallabay tizim orqali aholiga yaqinlashtirish lozim.

Konstitutsiyaviy islohotlarning barqarorlik kafolati sifatidagi roli. 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar O‘zbekistonda ijtimoiy adolat uchun “huquqiy immunitet” yaratdi. Falsafiy nuqtayi nazardan, konstitutsiyaviy davlat bu jamiyatdagi ijtimoiy qarorlarning barqarorligini ta’minlovchi tizimdir¹¹. Biroq, muhokama natijalari shuni anglatadiki, huquqiy normalarni deklarativ e’lon qilish yetarli emas, ularni amalda ta’minlash uchun sud hokimiyatining mustaqilligi va Ombudsmanning vakolatlarini yanada kengaytirish lozim.

XULOSA.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-son Farmoni.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. 2023.

Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etish jarayoni shunchaki iqtisodiy islohotlar yig‘indisi emas, balki davlat boshqaruvining “Inson-jamiat-davlat” paradigmasiga asoslangan tub transformatsiyasidir. 2023-yilda umumxalq referendumini orqali yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya ushbu jarayonning mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu o‘zgarish ijtimoiy yordamni “davlatning ixtiyoriy marhamati” darajasidan fuqarolarning muqaddas va daxlsiz “konstitutsiyaviy huquqi” darajasiga ko‘tardi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy xulosalarimiz shuni tasdiqlaydiki, Milliy ijtimoiy himoya agentligining tashkil etilishi va tarqoq ijtimoiy xizmatlarning yagona boshqaruv tizimiga birlashtirilishi xalqaro standartlarga, xususan, ilg‘or Finlandiya modeliga to‘la muvofiq keladi. Bu yondashuv resurslarni adolatli taqsimlash va byurokraziyani kamaytirish imkonini yaratdi. Shuningdek, quyi bo‘g‘inda joriy etilgan “Mahalla yettiligi” tizimi ijtimoiy himoyaning manzilliligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynadi. 2017–2024-yillar davomida 3,5 milliondan ortiq fuqaroga ko‘rsatilgan amaliy ko‘mak ijtimoiy adolat tamoyili qog‘ozdan real hayotga ko‘chganligining amaliy isbotidir. Biroq, tadqiqotda aniqlangan ta’lim tizimidagi kadrlar sifati muammosi ijtimoiy davlatning barqarorligiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Sifatli ta’limsiz ijtimoiy mobillikka erishish va kambag‘allikni bartaraf etish imkonsizdir.

Tizimni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari surishimiz mumkin:

1) Kadrlar salohiyatini oshirish: Ijtimoiy xodimlar malakasini oshirish (ya’ni ijtimoiy ximoya tizimi yuqori darajada rivojlangan xorijiy davlatlarga xodimlarni malakasini oshirish uchun davlat+xodim hamkorligida malaka oshirish yo‘l xaritasi ishlab chiqish)da xarajatlarning bir qismini (40 foizdan oshmagan holda) xodimlar hisobidan qoplash mexanizmini joriy etish orqali shaxsiy mas’uliyat va professionallikni kuchaytirish lozim.

2) Raqamli monitoring va xalqaro muloqot: Xorijiy tajribalarni doimiy o‘rganish va tizimdagi kamchiliklarni tahlil qilish uchun xalqaro agentliklar bilan yiliga kamida 3 marta onlayn muloqot platformalarini tashkil etish zarur.

3) Manzillilikni raqamlashtirish: “Ijtimoiy karta” tizimini to‘liq integratsiya qilish orqali yordam ajratishda inson omilini minimallashtirishni davom ettirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-93-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son Qarori.

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti. 2021.

8. Saidov A.X. Huquqiy davlat: nazariya va amaliyot. Toshkent: Adolat. 2022

9. Talapov B.A. Demokratiya va O‘zbekistonda milliy demokratik taraqqiyot. Namangan: Ziyo nashriyoti. 2022.
10. Jahon falsafasi qomusi. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti. 2019.
11. Hamroyev S.S. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy adolat: ma’naviy va huquqiy jihatlar. Ilmiy axborotnoma, 2023/4, 12-18.
12. Ro‘ziyeva R. Ijtimoiy davlatda adolat tamoyillarining institutsional kafolatlari. Journal of Legal Research. Toshkent. 2023.